

2-SINF ONA TILI DARSLIGIDA ATOQLI OTLARNING BERILISHI VA ULARNI O‘RGATISH METODIKASI

Usmonova Mashhura Ulug‘bek qizi

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada Ot so‘z turkumi tarkibida o‘rganiluvchi atoqli otlar tahlilga tortilgan. Ularni o‘rgatish bosqichlari haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgandan so‘ng 2-sinf Ona tili darsligi doirasida aynan o‘rganilgan. Ularning qay tarzda berilishiga to‘xtalib, o‘quvchilar mavzuni oson o‘zlashtirishlariga yordam beruvchi turli metodlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: atoqli otlar, innovatsion metodlar, onomastika, Ot so‘z turkumi

Atoqli otlar shaxs va narsalarning nomini bildirgan so‘z bo‘lganligi uchun Ot so‘z turkumi doirasida o‘rganiladi. Bu mavzuga oid tushunchalarni o‘quvchilarga o‘rgatish, aslida, maktabgacha ta‘lim jarayonidanoq boshlanadi, ammo unga ma‘lum bir atama sifatida qaralmaydi. Bolalar maktabga qadam qo‘yganidan keyin ular o‘zlari hayotlari davomida ko‘rgan, bilgan narsalarini ilmiy jihatdan qaytadan kashf etadilar

“Ot” mavzusini o‘rganish tizimi maqsadga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, bunda shu so‘z turkumining umumlashtirilgan ma‘nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog‘liqlikda o‘rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to‘g‘ri foydalanish va to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi. Boshlang‘ich sinflarda otni o‘rganish vazifalari quyidagilar:

- 1) “ot” haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;
- 2) kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan (shaxs bildirgan) otlardan nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko‘nikmasini hosil qilish;
- 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko‘nikmasini shakllantirish;
- 4) otlarda son (otning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi) bilan tanishtirish;
- 5) otlarni egalik qo‘shimchalari bilan to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish;
- 6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;
- 7) o‘quvchilar lug‘atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o‘rinli foydalanish malakasini o‘stirish;
- 8) so‘zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, “Ot” mavzusini o‘rganishning muayyan bosqichida

bajarish lozim bo‘lgan bir vazifani bajarishga ko‘proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1-, 2-sinflarda so‘z turkumi sifatida o‘ning belgilari (nimani bildirishi, so‘roqlari) o‘rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko‘plikda qo‘llanishini o‘zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda o‘ning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi, kelishiklar bilan turlanishi hamda kelishik qo‘shimchalarining yozilishini o‘rganishga e‘tibor qaratiladi. O‘quvchilarning nutqi va tafakkurini o‘stirish vazifasi esa mavzuni o‘rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o‘rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o‘quvchilar lug‘atini boyitishga, bog‘lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga qaratiladi.¹ Hozir biz, aynan, 2-sinf o‘quvcilari uchun Onomastik tushunchalar darslikda qay darajada berilganligini ko‘rib chiqamiz.

2023-2024-o‘quv yilida 2-sinf o‘quvchilari uchun nashr etilgan “Ona tili” darsligining 1-qismida berilgan “O‘zbekiston – mustaqil davlat”, “Samarqand – go‘zal shahar”, “Mening mahallam” boblari doirasida toponimlarga, “Ulug‘ allomalar yurti” bobidagi “Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar” mavzusi bilan hamohang holda o‘quvchilarga bobokalonlarimizning kashfiyotlari haqida ma‘lumot berish orqali antroponimlarga oid dastlabki tushunchalar berib o‘tilgan. Bu yoshdagi o‘quvchilarga atoqli otlarni o‘rgatishdan asosiy maqsad ularning imlosi bilan tanishtirish bo‘lganligi uchun, bemalol Onomastika Fonetika bo‘limi bilan uyg‘unlasha olgan. Quyida shu kabi mashqlarga misollar va ularni bolalarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun turlicha metodlarga namunalar berilgan

10-bet 6-mashq. Shaharlar nomini yozing. Yozgan so‘zlaringizda tovushlar va harflar sonini sanang.



¹ Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. — Toshkent: Noshir, 2009. — 249-b.



2

Ushbu mashqni multimedia vositasida bajarish ham samarali bo‘ladi. Berilgan rasmlarni ko‘rsatib audio holatda shu to‘rttalasiga oid matn o‘qib eshittiriladi. shu yordamida bolalar mazkur me‘moriy obidalar haqida ma‘lumot olishadi va mashqning shartiga javob topishadi.

35-sahifadagi 4-mashq. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan undoshlarni qo‘yib, shahar nomlarini yozing.

Bolalarga ayrim undosh tovushlari tushirib qoldirilgan holda turli shaharlar nomi berilgan. Mashqni bajarish bolalarga yana-da qiziqarliroq bo‘lishi uchun “Yurtimning har bo‘lagi” metodini qo‘llash mumkin.

Bu o‘yinimiz quyidagi tartibda olib boriladi. Avvalo, o‘quvchilar kichik guruhlariga ajraladilar va har biriga viloyatlarining markaziy shaharlari nomi tushirilgan O‘zbekiston Respublikasi siyosiy xaritasini pazl shaklida birlashib yig‘ib chiqishadi.

Ular ishni tamomlashgandan keyin doskaga siyosiy karta ilinadi hamda viloyat va shahar nomlari juft-juft qilib yoziladi.

Buyuk olimlarimiz bilan o‘quvchilarni tanishtirish uchun ajratilgan “Ulug‘ allomalar yurti” bobi davomida o‘rganganlarini mustahkamlash uchun quyidagi “Mosini toping” metodini qo‘llasak bo‘ladi.

Quyidagi mashqdan “Ulug‘ allomalar yurti” bobi yaakunida mustahkamlash uchun foydalansa bo‘ladi.

Berilgan ma‘lumotlar kim haqida ekanligi toping va belgilang.



Al-Xorazmiy

² Kuranov S. Ona tili (2-sinf uchun darslik 1-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 10-b.

Bu olimning “Tib qonunlari” kitobi dunyoga mashhur. U Yevropada Avitsenna nomi bilan ham ataladi.



Al-Fargʻoniy

Gʻarb tillarida uning ismi Aliboron deb ham atalgan. Olim falakiyot, riyoziyot, geodeziya, jugʻrofiya, mineralogiya kabi tabiiy fanlarni yaxshi bilgan. Shuningdek, tarixchi, xronolog va tilshunos sifatida ham ajralib turardi. U oʻz davrining deyarli barcha fanlarini mukammal oʻrgangani sabab qomusiy alloma hisoblanadi.



Abu Ali ibn Sino

Olim Yevropada Alfraganus taxallusi bilan mashhur. Yil davomidagi suv toshqini mavsumida Nil daryosining suvining balandlik darajasini oʻlchash uchun ishlatiladigan asbob – Nilometrni kashf etgan.



Abu Rayhon Beruniy

Amerikalik fan tarixchisi George Sarton bu olimni „O‘z zamonasining eng buyuk matematigi, agar barcha holatlar e‘tiborga olinsa, barcha zamonlarning eng buyuk matematiklaridan biri“, deb baholagan.

Mazkur darslikda Ot so‘z turkumiga oid ma‘lumotlar kitobning 3-qismida berilgan. Dastlab kim? nima? So‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlarning bir-biridan farqi o‘rgatiladi. So‘ngra otlardagi ko‘plik tushunchasiga o‘tiladi. Bular o‘quvchilarga yetkazib berilgandan so‘ng biz “Ism va familiya imlosi”, “Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar imlosi”, “Shahar, qishloq, ko‘cha va daryolarga qo‘yilgan nomlar imlosi” kabi mavzular bilan tanishamiz. Bu onomastik birliklar (antroponim, zoonim, toponim) bilan tanishtirishda biz faqat ularning imlosiga, bosh harflar bilan yozilishiga e‘tibor qaratamiz.

Misol tariqasida nomlarning kelib chiqishini o‘rganishga, tahlil qilishga qiziqtiruvchi, undovchi 57-sahifada berilgan quyidagi bobo va nabira dialogini ko‘rishimiz mumkin.

Hunar – hunardan unar

Jasur: – Bobojon, Taqachi degan joy bor ekan. Nega bunday nomlanadi?


Bobosi: – Taqachi – Toshkent shahridagi ko‘chaning nomi. Tarixda bu joylarda taqachi hunarmandlarning uylari bo‘lgan. Toshkentga kirib kelgan karvonlar shu ko‘chada to‘xtab, otlarining taqasini yangilab olishgan.

Jasur: – Tushundim. Bu ko‘chaning nomi shu joyda yashaydigan odamlarning kasbi bilan bog‘liq ekan.

Bobosi: – Yurtimizda yana Kulol, Temirchi, Chevar nomli ko‘cha va qishloqlar ham bor.³

Bu kabi mavzularni mustahkamlash uchun sinfdan tashqari Ona tili to‘garaklarida bolalar “Erudit” o‘yinini sinab ko‘rsalar bo‘ladi.





“ERUDIT” o‘yini



³ Kuranov S. Ona tili (2-sinf uchun darslik 3-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 57-b.

Ushbu metodni o‘tkazishdan asosiy maqsad, o‘quvchilarda tezkorlikni shakllantirish bilan bir qatorda diqqatni jamlash va toponimikaga oid dastlabki, boshlang‘ich bilimlarini mustahkamlashdir

Shartli belgilar:

	Yasalgan so‘zning biror harfi shu rangdagi katak ustiga tushsa, so‘z orqali necha ball yig‘sa, shuni 3 baravariga teng ochko oladi
	Yasalgan so‘zning biror harfi shu rangdagi katak ustiga tushsa, so‘z orqali necha ball yig‘sa, shuni 2 baravariga teng ochko oladi
	Yasalgan so‘zning biror harfi shu rangdagi katak ustiga tushsa, shu harf necha ochko beradigan bo‘lsa, shuni 3 baravariga teng ochko oladi
	Yasalgan so‘zning biror harfi shu rangdagi katak ustiga tushsa, shu harf necha ochko beradigan bo‘lsa, uni 2 baravariga

O‘yin shartlari:

Biz ushbu o‘yinni toponimlar, joy nomlariga moslab olamiz. Ya‘ni tuziladigan so‘zlar faqatgina toponim bo‘lishi kerak. So‘zlar faqat gorizotal va vertikal yo‘nalishda yasaladi.

Qatnashchilar soni: 2 tadan 4 tagacha

Ularning yoshi: 7-8 dan yuqori

Harflar soni: 224 ta, 16 juft

Kataklar soni: 15X15

Yurishlar soni: harflar tamom bo‘lguncha

Chiqqanicha so‘z yasashi mumkin

O‘yin har bir qatnashchi yettitadan harfni qopchasidan tortib olishi bilan boshlanadi. 1-so‘z markazdagi katakchadan o‘tkazilgan holda yasaladi.

Qo‘lidagi harflardan istagancha foydalanishi mumkin. Uni ehtiyotlab ishlatsa, o‘ziga foyda bo‘ladi. Sababi, qo‘lidagi fishkalarini yangilamoqchi bo‘lsa, o‘zining o‘yin navbatini qo‘ldan boy beradi. Agar har bir qatnashchi yangilasa, xod o‘tkazilmaydi.

Harflarni yangilash 2 xil bo‘ladi:

1. Qo‘lidagi fishkalar sonini 7 taga to‘lg‘izadi

2. Fishkalarini butunlay almashtiradi. Qo‘lidagilarni berib, o‘rniga 7 ta oladi

O‘yin yakunida jami yig‘ilgan ballar hisoblanib natija e‘lon qilinadi.

Biz dars jarayonida bolalarning yoshiga va bilim darajasiga qarab, interfaol metodlardan foydalanib dars o‘tamiz. So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniya, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta‘lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘qituvchilar oldida fanga doir nazariy ma‘lumotga ega bo‘lish va ta‘lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Biz o‘qituvchilar darslarni turli xil innavotsion metodlar orqali tushuntirib, yoritib bolalarga yetkazib berishga harakat qilishimiz kerak. ⁴

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. — Toshkent: Noshir, 2009. — 249-b
2. Sidiqova D. Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish. *Международный научный журнал № 5 (100), часть 1. Научный импульс, 2022. 731-733-betlar*
3. Kuranov S. Ona tili (2-sinf uchun darslik 3-qism). – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 57-b.

⁴ Sidiqova D. Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish. *Международный научный журнал № 5 (100), часть 1. Научный импульс, 2022. 731-733-betlar*